

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**GADAYEV OYBEK YAXSHIBOYEVICH**

**O‘ZBEK TILIDA TOPONEGIZLAR SHAKLLANISHINING  
LINGVISTIK XUSUSIYATLARI  
(Ishtixon va Payariq tumanlari toponimlari misolida)**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Gadayev Oybek Yaxshiboyevich**

О'zbek tilida toponegizlar shakllanishining lingvistik xususiyatlari  
(Ishtixon va Payariq tumanlari toponimlari misolida) ..... 3

**Гадаев Ойбек Яхшибаевич**

Лингвистические особенности образования топооснов в узбекском языке  
(на примере топонимов Иштиханского и Пайарикского районов) ..... 25

**Gadaev Oybek Yakshiboevich**

Linguistic features of the formation of topobases in the Uzbek language (on the  
example of toponyms of the Ishtikhan and Payariq districts)..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 54

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**GADAYEV OYBEK YAXSHIBOYEVICH**

**O‘ZBEK TILIDA TOPONEGIZLAR SHAKLLANISHINING  
LINGVISTIK XUSUSIYATLARI  
(Ishtixon va Payariq tumanlari toponimlari misolida)**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №V2021.3.PhD/Fil1923 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb -sahifasida (www.samdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Pardayev Azamat Baxronovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Jabborov Xo‘jamurod**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Qilichov Bayramali Ergashovich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat pedgagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 105-xona,)

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**J.D.Eltazarov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Sh.S.Mahmadiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**D.B.Urinbayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida bugungi kunda toponimik tadqiqotlar tilshunoslik, tarix, geografiya, etnografiya, sotsiologiya fanlari bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Muayyan xalqning madaniy-ma'naviy munosabatlari va iqtisodiy-ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi lisoniy manba sanaluvchi toponimik birliklarni lingvistik aspektda tadqiq qilish orqali ularning antroposentrik, sotsiolingvistik, lingvokulturologik, lingvopragmatik, kognitiv, semantik, tarixiy-etimologik xususiyatlari ochib beriladi. Muayyan hududga xos bo'lgan, shu xalq tarixi va til tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan toponimik birliklarning barcha turlarini yaxlit bir butun tizim sifatida o'rganish natijasida tarixiy, madaniy, nominatsiyon-motivatsion xususiyatlarini yoritish masalasi dolzarb sanaladi.

Dunyo tilshunosligida bugungi kunda toponimlarning turli aspektlarda tadqiqot obyektiga aylantirilishi muayyan tillarning tarixiy taraqqiyoti va takomilini yoritishda, xalqlarning milliy, etnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy tarixini, milliy tillarni o'ziga xos jihatlarini ochib berishda muhim vosita sanalmoqda. Toponimlarni yangi lisoniy paradigmalar asosida tadqiq etish til va dialektlarning shakllanish va taraqqiy etishi bilan bog'liq ko'plab masalalarni yechimini topishda muhim rol o'ynaydi. Chunki muayyan arealga mansub toponimik birliklar shu hududda yashayotgan xalqlarning tarixiy o'zgarishlari dinamikasi, etnik tarkibi va kelib chiqishi, g'oyaviy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, migratsiya va integratsiya hamda boshqa hodisalarga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Mamlakatimizda hozirgi vaqtda o'zbek tilshunosligida toponimik yo'nalishda keng miqyosda fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, Samarqand viloyatining Ishtixon, Payariq tumanlari toponimiyasi lingvistik jihatdan o'rganilmagan. Binobarin, "Milliy o'zligimizni timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi"<sup>1</sup>. Darhaqiqat, muayyan hududga tegishli toponimlarning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan til birliklari va leksik-semantik xususiyatlarini zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida tadqiq etish tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-sonli "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси. 2022 йил 20 декабрь.

hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda toponimlarning tarixiy-lisoniy, leksik-semantik, etnogeografik, sotsiopragmatik, grammatik va lingvokulturologik, paradigmatic va sintagmatik yondashuvlar uyg'unligida o'rganish ommalashmoqda. O'zbek toponimikasining taraqqiyoti bugungi kunga kelib, yurtimizda muayyan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tizimlashtirilgan bo'lsa-da, doimiy ravishda hukumat miqyosida ko'rib boriladigan masalaga aylandi. Mustaqillik yillarida toponimlarning lisoniy tizimdagi funksional-semantik taraqqiyoti, shakllanishi, qo'llanish jarayonidagi ahamiyati, nom yasalishi bilan bog'liq xususiyatlarini aniqlash borasida tilshunoslik, tarix, geografiya fanlari uyg'unligida ko'plab ilmiy fundamental tadqiqotlar<sup>2</sup> amalga oshirildi va 30 dan ortiq dissertatsiyalar<sup>3</sup> himoya qilindi. Jumladan, o'zbek toponimshunoslari sifatida

---

<sup>2</sup>Хасанов Х. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – 83 б.; Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 290 б.; Караев С. Топонимия Узбекистана (социолингвистические аспекты). – Ташкент, 1991.; Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 85 б.; Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 320 b. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: ЎМЭ, 2005. – 240 б.; Рахматов Т. Фелъ топонимларининг ясаилиши// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973. - №5. – Б. 52-55.; Ўша муаллиф. Номлар ва ривоятлар//Саодат. – Тошкент, 1973. – №4. – Б. 27.; Ўринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи. – Самарқанд, 1997. – 202 б. Ўринбоев Б. Жиззах вилояти топонимлари. – Жиззах, 1992. – 54 б.; шу муаллиф. Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳли луғати. – Самарқанд, 1997. – 202 б.; шу муаллиф. Асрлардек барҳаёт номлар. – Самарқанд: Зарафшон, 2003. – 264 б.; шу муаллиф. Жиззах топонимлари таъбири. – Самарқанд, 2007. – 80 б. ХасановХ. География терминлари луғати. –Тошкент: Фан, 1964; ДўсимовЗ., ЭгамоваХ. Жойномларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977; Қораев С., Ғуломов П., Раҳимбеков Р. Географик терминлар ва тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1979; Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988; ХусановН. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. I китоб. – Тошкент: Ёзувчи,1996; Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. II китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1997; Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.Худойбердиева М. Бадиий асардаги топонимларнинг лингвистик хусусиятлари ва изоҳи масаласи (Пиримкул Қодировнинг "Юлдузли тунлар", "Хумоюн ва Акбар" романлари материаллари асосида). – Самарқанд: СамДУ, 2006. Ҳақимов Қ. Жиззах вилояти географик номлари. –Тошкент 2009 Бегалиев Н. Самарқанд топонимияси. – Самарқанд, 2011. –128 б.; Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан,2006; Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Самарқанд, 2011; Эназаров Т., Хусанова М., Есемуратов А. Ўзбек номшунослиги. – Тошкент: Наврўз, 2015. Санақулов У. Топонимлар таркибида этнонимлар. – Тошкент: Voris, 2016. – 124 б.

<sup>3</sup>Нафасов Т. Топонимы Кашкадарынской области: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1968. –24 с.; Рахматов Т. Топонимия города Самарканда и его окрестностей:Автореф. дис. ... канд. фидол. наук. – Москва, 1973. – С. 22; Закиров А. Топонимия Джизакской области Узбекской ССР: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1991;Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлил): Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 25 б.; Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси:Фил.фан.ном. дис.– Тошкент,1994. ОтажоноваА. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари :Фил. фан. ном. дис. автореф.– Тошкент, 1997; Туробов А. Самарқанд вилояти этноойконимларининг таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. –Тошкент, 1999. –226.; Нуритдинова Р.С. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили: Фил. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2005; Эназаров Т. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари

H.Hasanov, S.Qorayev, T.Nafasov, B.O‘rinboev, Z.Do‘simov, N.Uluqov, S.Gubayeva, S.Karimov, Sh.Qodirova, L.Karimova, Y.Xo‘jamberdiyev, T.Rahmatov, J.Latipov, N.Oxunov, T.Enazarov, O.Begimov, N.Begaliyev, A.Turobov, S.Bo‘riyev, Sh.Temirov, S.Ahmedov kabilarni sanab o‘tish mumkin. Ular toponimikaning turli rakurslarini yorituvchi tadqiqotlari bilan o‘zbek toponimiyasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashdi va uning taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shishdi. Ushbu tadqiqotlarda mamlakatimizdagi geografik obyektlarning nomlanishi, kelib chiqish tarixi, nomlanish motivlari va tamoyillari, leksik-semantik, etimologik, grammatik, morfemik, yasaliş xususiyatlari tarixiy-geografik, tarixiy-lisoniy jihatdan ochib berilgan va bu sohaga tegishli yechimini kutayotgan muammolarni hal qilish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatib berilgan.

O‘zbek nomshunosligidagi ilmiy tadqiqotlarda toponimlarning lisoniy tarkibi haqida ma‘lumot beruvchi topoasos, topoformant, indikator kabilar, toponimlarning yasalişhi, shakllanishi, so‘zlarning toponimga ko‘chishi, imloviy xususiyatlari, makrotoponim, mikrotoponim, izohli va etimologik tahlillar, tavsifiy, izohli va etimologik tadqiqi bo‘yicha ko‘plab ishlar bajarilgan bo‘lsa-da, ammo toponegiz masalasi alohida tadqiqot obyekti qilib olinmagan. Bu masala T.Enazarovning ayrim maqolalarida<sup>4</sup>, E.Begmatov va N.Uluqovlarning “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati”da lug‘at maqola obyekti sifatida e‘tiborga olingan bo‘lsa<sup>5</sup>, S.Karimov va S.Bo‘riyevlar monografiyasida bir o‘rinda to‘xtalib o‘tilgan<sup>6</sup>, xolos.

O‘zbek toponimikasi sohada amalga oshirilgan tadqiqotlardagi qarashlarni aniqlashtirishga, toponimlarning yangi qirralarini ochib berishga yo‘naltirilgan ilmiy ishlarni amalga oshirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Respublikamizda juda ko‘p hududlarning, jumladan, viloyatlar, tumanlar kesimida toponimlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, amalga oshirilgan tadqiqotlarda toponimlarning yasalişhi va shakllanishi masalasiga e‘tibor qilinganligini e‘tirof etgan holda ularda toponegiz masalasiga alohida to‘xtalinmaganligini ta‘kidlash joiz. Binobarin, toponimlarning yasalişhi, shakllanishi haqidagi fikr-mulohazalar toponegiz orqali oydinlashishi mazkur ishni amalga oshirish lozimligini ko‘rsatib turibdi. Shu nuqtai nazardan, toponegizning toponim tarkibi, tuzilişhi va shakllanishi bo‘yicha to‘liq ma‘lumot berishini inobatga olib, Ishtixon va Payariq tumanlari misolida alohida tadqiqot mavzusi doirasida monografik rejada ilmiy tadqiq etilişhi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

---

va etimologik tadqiqi i‘llari. Fil. fan. dok. dis. – Toshkent, 2006; Buriyev S. Urgut tumani mikrotoponimlarining leksik-semantik tahlili: Filol. fan. nomdiss. avtorref. – Toshkent, 2010. – 236. Temirov Sh. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi: Filol. fan. falsafa d-ri (PhD) diss. avtorref. – Samarqand, 2019. – 51 b.

<sup>4</sup> Enazarov T. J. Toponimlar tadqiqiga oid ishlar da terminlarni qullash muammosi // Professor Rahmatulla Qunqurovning ilmiy merosi va uzbek uslubshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari. Samarqand, 2003. – B.134-138.; Enazarov T. J. Ilmiy ishlar da terminlarni qullash muammosi (Toponimik tadqiqotlar misolida) // Uzbek tilshunosligi muammolari (ilmiy maqolalar toplami). T., 2003. – B.108-113.

<sup>5</sup> Begmatov E., Uluqov N. Uzbek onomastikasi terminlarining izohli lugati. – Namangan, 2006. – B.76.

<sup>6</sup> Karimov S.A., Buriyev S.H. Uzbek toponimikasi taraqqiёт bosqichida. – Toshkent: Fan, 2006

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi tarkibiga kiruvchi "O'zbek tili birliklarining funksional-stilistik va kognitiv-pragmatik tahlili masalalari" mavzusidagi tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Samarqand viloyati Ishtixon va Payariq tumanlari hududiga mansub topoobyektlarning insoniyat tarixi davomida qaror topgan toponimik negizlar shakllanishiga oid xarakterli xususiyatlarni tadqiq va tahlilning ham amaliy, ham nazariy jihatlarini belgilash, leksik-semantik jihatdan tasniflash, mushtarak va o'ziga xos xususiyatlarini yoritishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:**

tilshunoslikda, xususan, nomshunoslikda toponegiz masalasi muammo sifatida o'rganilishining zarurligi va o'ziga xos jihatlarini misollar majmuyi orqali dalillash;

toponimlarning tarkibi, tuzilishi va shakllanishi toponegiz orqali oydinlashishini, toponegizning toponim bo'yicha to'liq ma'lumot berishi inobatga olib, toponegizni tavsifini berish;

nomshunoslikdagi negiz va toponegiz tushunchalarining talqinini turli ishonarli dalillar vositasida ilmiy nazariy va ilmiy amaliy jihatlardan asoslab ko'rsatish;

toponegiz masalasiga mamlakatimiz, shu jumladan, Ishtixon va Payariq tumanlari toponimlari misolida oydinlik kiritishning zarurligi va ahamiyatini dalillar bilan talqin etish;

toponegizning odatdagi oddiy so'zlardagi negizlardan farqlashning individual holatlarini talqin qilish, ularning o'xshash hamda farqli jihatlarini o'rganishning tamoyil va me'yorlarining ilmiy hamda amaliy zarurligini misollar vositasida bayon etish;

Samarqand viloyatining Ishtixon va Payariq tumanlari hududidagi toponimlar asosidagi toponegizlarning bugungi kundagi holatining tahlilini ilmiy nazariy va amaliy dalillar majmuyi vositasida atroflicha talqin etish;

Tanlangan hudud toponimiyasining boshqa hududlar bilan o'ziga xos va mushtarak jihatlarini ko'rsatish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Samarqand viloyatining Ishtixon va Payariq tumanlari hududidan mustaqil izlanishlar, dialektologik va toponimik amaliyot jarayonida to'plangan 3320ta toponimlarning asosi bo'lgan toponegizlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Samarqand viloyatining Ishtixon va Payariq tumanlari toponimlarini shakllantirgan toponegizlarni hosil bo'lishida lisoniy va nolisoniy omillar, ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-geografik omillar natijasida yasalgan toponegizlarning leksik-semantik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada lisoniy tavsiflash, lingvogeografik, tarixiy, diaxron, sinxron, semantik, etimologik, metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

toponimlarning tarkibi, tuzilishi va shaklanishi toponegiz orqali oydinlashishi sababli toponegiz termini talqini Ishtixon va Payariq tumanlaridagi *Buyra+chi*, *Kindik+li* – yasama, *O‘roq+li* – yasama, *Bodomcha+li* – yasama, *Jar+lik* – yasama, *Ko‘l* – tub, *Markaz* – tub, *Chim*–tub, *Jar* – tub, *Qozi*–tub singari joy nomlarining yasama va tub jihatlari ochib berilgan;

toponegizning toponim bo‘yicha to‘liq ma‘lumot berishini inobatga olib, toponegizning morfemik tarkibi aniqlanib, ularning yasalish xususiyatlaridagi ot, sifat, son, fe‘l so‘z turkumlaridan o‘sib chiqqanligi ot+ ot+ ot: *Iloniziyo‘l*, son+ot: *Uchkunchak*, ot+fe‘l: *Kampiro‘ldi*, son+ot+-li: *Qirqqozonli* kabilar orqali asoslangan;

Ishtixon va Payariq tumanlaridagi toponegizlar shakllanishining lingvistik va ekstralingvistik omillarini aniqlash orqali bir necha ming yillik turmush tarzi bilan aloqador *Buyrachi*, *Juvozxona*, *Baliqchi* kabilar, xalq tarixi *Qo‘ng‘irot*, *Naymancha*, *Qatag‘on*, *Cho‘michli*, *Chelak*, *Uymovut* kabilar, tabiatga munosabati *Oqtog‘*, *Teshiktog‘*, *Kaltaqir*, *Chinortepa*, *Avliyotepa*, *Yo‘g‘ontepa*, *Darvozagaza* kabilar orqali dalillangan;

Ishtixon va Payariq tumanlaridagi toponimlarning o‘zagini, yadrosini tashkil etuvchi toponegizlarni fonetik omillar *Sug‘ot*, *Cho‘rash*, *Ayuchi*, *Molguzar* kabilar, leksik omillar *Rasulkamar*, *Qo‘lota*, *Payshanbiariq* kabilar, leksik-semantik omillar *Eshimoqsoq*, *Qo‘riq Bodoq* kabilar, grammatik omillar *Chandir*, *Egarchi*, *Raimtepa*, *Oytamg‘ali* kabilar bilan etimologik mukammalligi ochib berilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilarda aks etgan:

Ishtixon va Payariq tumanlari hududi toponimiyasi bo‘yicha to‘plangan materiallar, qo‘yilgan muammolarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosalar va umumlashtirilgan fikrlar o‘zbek tilshunosligining toponimika sohasi uchun eng muhim zaruriy, ilmiy ma‘lumot berishi, toponimika bo‘yicha tadqiqotlar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi, leksikologiya, onomastika, dialektologiya, toponimika fanlarini o‘qitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslangan;

Ishtixon va Payariq tumanlari hududiga tegishli toponegizlar bilan bog‘liq to‘plangan materiallar, dissertatsiya materiallari o‘zbek leksikologiyasi, terminologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar yaratishda, soha istiqbolini belgilashi va bu borada yaratiladigan monografiyalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

toponimika bo‘yicha izohli, imlo lug‘atlari yaratilishida manba sifatida xizmat qilishi qayd etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada toponegizni tilshunoslik doirasida o‘rganish borasidagi muammolarning aniq qo‘yilgani, tadqiqotga jalb qilingan yondashuv usullari, ishonchli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilganligi, tadqiqot usullarining ilmiy maqsadga muvofiqligi, tahlilga tortilgan materiallar o‘zbek tili va toponimik areal tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosliligi, metodologik mukammalligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan

tasdiqlanganligi, keltirilgan tahlil, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, o'zbek tilshunosligini, jumladan, toponimika sohasini muayyan ilmiy-nazariy qarashlar va faktlar bilan boyiganligi, o'zbek toponimiyasining lisoniy, ijtimoiy, tarixiy, geografik o'zgarishlarni kuzatish imkonini berganligi, ishning ilmiy tahlili, nazariy asoslari va usullaridan respublikamizning boshqa hududlaridagi toponegizni o'rganishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati undagi materiallar, natija va xulosalarning o'zbek toponimikasiga oid darslik va qo'llanmalar yozishda, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida O'zbekiston toponimikasi bo'yicha maxsus kurslar, akademik litsey va maktablarda ona tili darslarida joy nomlariga doir mavzularni, tarix, geografiya fanlarini o'qitishda, "Ishtixon va Payariq tumanlari toponimlarining izohli lug'ati"ni tuzishda manba vazifasini bajarishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Samarqand viloyati Ishtixon va Payariq tumanlari hududidagi toponegizlar shakllanishining lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish asosida:

Samarqand viloyati Ishtixon va Payariq tumanlari hududidagi madaniy meros obyektlari joylashgan toponimik obyektlar ma'lumotlaridan O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligining 2023-yil 20-yanvar № 01-02/45-son ma'lumotnomasi). Natijada xalq tili va madaniyatining nodir merosi bo'lgan, o'tmishimizning ma'naviy ko'hna merosi, madaniy yodgorligi bo'lgan toponimik obyektlar bo'yicha ma'lumotlarni to'ldirishga xizmat qilgan;

Ishtixon va Payariq tumanlari hududi toponimlarning lisoniy tadqiqi bo'yicha olingan xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining ilmiy xodimlari tomonidan nashr etilgan "O'rta asr sharq allomalari ensiklopediyasi", "O'rta asrlarda yashagan samarqandlik allomalar" asarlarining mazmunini to'ldirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining 2023-yil 25-yanvardagi 02-36-son ma'lumotnomasi). Natijada talaba-yoshlarning mamlakatimizning qadimiy va zamonaviy tarixini o'rganish borasidagi bilimlari boyigan;

toponimikaga oid atamalarning ifodalanishi, ularning tipologik tahlili va bu tushunchalarni o'rganish kabi tavsiyalardan Yevropa Ittifoqining Erazmus+ dasturi 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JPCLASS:"Computational Linguistics at Central Asian universities" grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 27-fevraldagi 433/30.02.01 son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning elektron platformasidagi modul resurslarini to'ldirishga, boyitishga xizmat qilgan;

Ishtixon va Payariq tumanlari hududigagi toponimlarga aylanadigan soʻzlar, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlar natijasida toponimlashuv hodisasining yuzaga kelishiga oid xulosalardan Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Madaniyat va maʼrifat” telekanalining “Bir soʻz taʼrifi” va “Bor gap” koʻrsatuvlarining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston milliy teleradio kompaniyasining 2023-yil 19-yanvar №01-02-02/09-son maʼlumotnomasi). Natijada ushbu koʻrsatuvlarning oʻzbek xalqi tarixi va til tarixi bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan jihatlari boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 6ta respublika, 3ta xalqaro konferensiyada qilingan maʼruzalarda aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 14ta ilmiy ish, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5ta, jumladan, 4ta respublika hamda 1ta xorijiy jurnalda maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilova tarzida berilgan Ishtixon va Payariq tumanlari toponimlarining umumiy roʻyxatidan iborat boʻlib, 153 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsad va vazifalari, predmeti va obykti aniqlangan. Mavzuning xorijda va mamlakatimizda oʻrganilganlik darajasi qayd qilingan. Tadqiqotning Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchli ekanligi asoslangan, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, eʼlon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Oʻzbek toponimikasining taraqqiyot bosqichlari**“ deb nomlangan birinchi bobi uch boʻlimdan iborat. Bobning “*Oʻzbekiston toponimiyasi tadqiqot obykti sifatida*” nomli birinchi boʻlimida mamlakatimiz hududidagi toponimlarni oʻzbek tilining tarixiy taraqqiyotini namoyon qiluvchi lisoniy boylik sifatida ilmiy asoslash, xalq maʼnaviyatining ulugʻ merosi sifatida talqin qilish, tarixiy-etimologik jihatdan tahlil qilish, ularning grammatik va imloviy xususiyatlarini tadqiq qilish masalalari xususida soʻz yuritilgan. Respublikamizda olib borilayotgan siyosatning ustuvor vazifasi sifatida toponimlarning tarixi, turlari va shakllanish qonuniyatlarini ham nazariy, ham amaliy jihatlardan oʻrganib, toponegizlarning shakllanishi masalasi oʻzbek tilshunosligi sohasida bugungi kunda amalga oshirilishi lozim boʻlgan muhim masalalardan biri tariqasida kun tartibiga qoʻyilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, toponimlarimizda qadim tarix va madaniyati, maʼrifatiga ega boʻlgan xalqimizning dili, tili, kelajakka

intiluvchi kurashchan ruhi bilan birga ona tilimizga berilgan Davlat tili maqomiga xos nazariy hamda amaliy ta'sirlarning yorqin ifodasi ham mujassamlashgan.

Bobning **“Samarqand viloyati toponimiyasi bo'yicha yaratilgan tadqiqotlar sharhi”** nomli ikkinchi bo'limida O'zbek toponimikasi sohasida samarqandlik toponimshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Samarqandlik tilshunoslar L.Royzenzon, H.Berdiyurov, R.Qo'ng'urov, X.Doniyorov, B.O'rinboyev, T.Rahmatov, B.Yo'ldoshev, S.Karimov, N.Begaliyev, A.Turobov, S.Bo'riyev, Sh.Temirov kabi olimlar tomonidan Samarqand viloyati toponimiyasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Binobarin, xalq tili va madaniyatining nodir merosi bo'lgan, o'tmishimizning ma'naviy ko'hna merosi, madaniy yodgorligi bo'lgan Samarqand viloyati hududi toponimlarini tumanlar kesimida lingvistik tahlil etish mamlakatimizning qadimiy va zamonaviy tarixini o'rganish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda toponimlarni tumanlar bo'ylab to'plash va ilmiy baholash o'zbek nomshunosligining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki hozirgi paytda nomlarning qo'yilish sabablarini, ushbu nodir lisoniy boyliklarning ma'nolarini, ular haqida to'qilgan rivoyatlarni biladigan keksa avlod vakillari kundan kunga kamayib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasida o'ziga xos o'rin tutuvchi Ishtixon va Payariq tumanlari toponimiyasini tadqiq qilish ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Binobarin, ushbu tumanlar hududi toponimiyasi bo'yicha to'plangan materiallar hozirga qadar lisoniy nuqtayi nazardan tadqiq qilingan emas. Ushbu tadqiqot ishimizda mazkur tumanlar toponimiyasini atroflicha to'plash, uning nomlanish motivlari va funksional-nominativ chastotalarini, lug'aviy-ma'noviy, xususiyatlarini tahlil qilishni maqsad qilib oldik.

Bobning **“Toponimika sohasida toponegiz muammosi”** nomli uchinchi bo'limida toponegiz masalasi xususida so'z yuritilgan. Dastlab bu hodisa rus va chet el olimlarning ham tadqiqotlarida tilga olingan bo'lsa-da, kichikroq lug'at maqolalar yoxud kichik hajmli ilmiy maqolalar ko'rinishida bo'lganligi, masala jiddiy ilmiy tadqiq etilmaganligi ochib berilgan. V.Toporov va O.Trubachevlar topoasos va topoformantdan shakllangan toponegizlar to'g'risida dastlabki ma'lumotni berishgan<sup>7</sup>. V.N.Toporov nazariy topoonomastikada toponegiz masalasiga ham qisqacha to'xtalib, topoformant, topoasos va toponegizni maxsus izohlagan<sup>8</sup>. Shu bilan birgalikda A.Superanskaya, V.Staltmane, N.Podolskaya, A.Sultanovlar tomonidan tayyorlangan “Onomastik tadqiqotlar nazariyasi va metodikasi” nomli monografiyada ham toponegiz masalasiga e'tibor berilmagan<sup>9</sup>.

Darhaqiqat, shu paytgacha toponimika sohasidagi ishlarda asosan topoasos, topoformant, indikator nomlanish va toponimlashuv jarayonlariga ko'proq e'tibor

---

<sup>7</sup> Toporov V.H., Трубачев О.Н. Лингвистический анализ гидронимов Верхнего Поднепровья. – М., 1962.– 268 с.

<sup>8</sup> Toporov V.H. Из области теоретической топонимистики // ВЯ. М., 1962. № 6. С. 3-12.

<sup>9</sup> Суперанская А.В., Сталтмане В.Э., Подольская Н.В., Султанов А.Х. Теория и методика ономастических исследований. – М., Наука, 1986. с.152-177, 254.

qaratildi. O‘z navbatida biz ilgari surayotgan toponegiz masalasini ilmiy tahlil qilish masalasi ham kun tartibiga chiqdi. Chunki o‘zbek tilshunosligida ushbu masala hozirgi kungacha ayrim ishlarda yo‘l-yo‘lakay fikr bildirilgan bo‘lsa-da, alohida monografik planda o‘rganilmagan edi. Garchi sohada ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, toponegiz, topoasos, topoformant va toponimik indikatorlar faolligining toponegiz hosil qilishdagi me‘yori, miqyosi, o‘rni va rolga e‘tibor berilmagan edi. Bu esa mazkur tadqiqot uchun tanlangan mavzuning zaruriyati va dolzarbligini ko‘rsatib turibdi.

*Toponegiz* terminiga S.A.Karimov va S.N.Bo‘riyevlar A.Xromov<sup>10</sup>ning “Tojikiston toponim va mikrotoponimlari bo‘yicha ocherklar” monografiyasidagi fikriga tayangan holda shunday aniqlik kiritadi: “Toponimlar strukturasi toponegiz, topoformant, toponimik aniqlagichlar mavjud. “*Toponegiz* – bu topoformantlarni qo‘shish vositasida negizida toponimlar shakllanadigan har qanday leksik morfemadir”. Toponegizlar, odatda, tub so‘zdan va juda ko‘p hollarda bir yoki ikki bo‘g‘inli qurilmalardan iborat bo‘ladi: *Adas, Andoq, Baland, Saroy* kabi. Shu bilan birga, u yasama so‘zdan tashkil topgan bo‘lishi ham mumkin: *Vatak, Vatkan, Javtug, Jozmon* singari”<sup>11</sup>.

Mamlakatimiz hududida ayni vaqtda mavjud bo‘lgan mikro hamda makrotoponimlardagi toponegizlar shakllanishining o‘zagi, yadrosi sanaladi. Binobaorin, tahlil hamda talqin qilinishi ancha murakkab, qiyin va bahsli toponimlarning ma‘noli qismlariga ham toponegiz misolida aniqlik kiritilishi, shubhasiz, o‘rinlidir. Hozirgacha qilingan izohli hamda etimologik tahlillarni yanada mukammallashtiradigan ishonchli dalillar majmuyini ham toponegizlarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar zaminidan, xususan, ayni shu ilmiy ishimizning mazmun-mundarijasidan topish mumkin.

Bugungi kunda toponimlar izohli tahlilidan so‘ng undan-da mukammalroq bo‘lgan etimologik tahlili va tadqiqining haqiqatga yaqinligi<sup>12</sup> masalasi jiddiy muammo sifatida ko‘tarilgani ham ayni vaqtda toponegiz masalasi o‘zining dolzarbligini ko‘rsata oldi. Toponegiz masalasini oydinlashtirishda Ishtixon, Payariq toponimi singari xalq nutqida faol qo‘llanayotgan toponimlarning tahlili talqini ham ma‘lum ma‘noda misol bo‘la oldi.

Kuzatishlarimiz davomida Ishtixon va Payariq tumanlarida quyidagi miqdorda toponimlarni shakllantiruvchi toponegizlar mavjudligi aniqlandi: mahalla nomlari – 137ta, qishloq nomlari – 500ta, qabriston nomlari – 392ta, masjid nomlari – 49ta, ko‘cha nomlari – 1432ta, ziyoratgoh nomlari – 5ta, tepa nomlari – 291ta, tog‘ nomlari – 9ta, ariq nomlari – 147ta, bog‘ nomlari – 74ta, buloq nomlari – 30ta, dala nomlari – 161ta, daraxtzor nomlari – 38ta, jar nomlari – 11ta, suv ombor nomlari – 3ta, soy nomlari – 41ta, jami – 3320ta.

<sup>10</sup> Хромов А.Л. Очерки по топонимии и микротопонимии Таджикистана. – Душанбе: изд-во Ирфон, 1975.

<sup>11</sup>Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 34.

<sup>12</sup>Қаранг: Эназаров Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари: филол. фан. д-ри дисс. автореф. – Т., 2006. – 58 б.

Dissertatsiyaning “O‘zbek nomshunosligida toponegiz masalasi” deb nomlangan ikkinchi bobi uch bo‘limdan iborat. Bobning “*Toponegiz haqida*” nomli birinchi bo‘limida toponimlarni hosil qiluvchi toponimik qonuniyatlar zahirida vujudga kelgan toponegiz masalasi xususida so‘z yuritilgan. Toponegiz masalasi haqida gapirganda mamlakatimiz toponimlari tizimida faol qo‘llanayotgan toponimik qonuniyatlarni ham e‘tiborga olish kerak, chunki toponimlardagi toponegizlarda grammatik jarayon ro‘y berishi tabiiy bo‘lgani holda, ular amalda bo‘ladigan ikkilamchi holatdadir. Ulardagi birlamchi holat ma’noli qismlarning birikishi va toponimik ma’noni anglata olishidir. Chunki toponegiz ham toponimik qonuniyat amal qilgan vaqtdagina voqelanadi. Aks holda, toponegiz to‘g‘risida gapirib ham bo‘lmaydi. Xullas, toponimlarning o‘zagini, yana ham aniqrog‘i, yadrosini tashkil etadigan toponegiz masalasida fikr-mulohaza aytish uchun ilmiy ishlarda qo‘llanilayotgan topoasos, toponimik indikator, topoformant singari bir qancha toponimik tushuncha va terminlarni, toponimik qonuniyatlarni e‘tiborga olish kerak. Chunki toponimlar toponimik qonuniyatlari zahirida vujudga kelgani kabi toponegizlar ham mana shu jarayon majmuyida voqelanadi.

S.Karimov va S.Bo‘riyevlar taniqli toponimist olim E.M.Murzayev<sup>13</sup>ning mahalliy geografik turdosh atamalarning hech qanday o‘zgarishlarsiz atoqli otlarga aylanish qonuniyati haqidagi fikrini keltirib: “Ana shu qonuniyatga asoslaniladigan bo‘lsa, ular bu jarayonda toponegizga aylanadi va o‘ziga yangi mazmun kashf etgan holda toponimik tizimdan mustahkam o‘rin egallaydi. Toponimik elementlar o‘rtasidagi o‘zaro semantik yaqinlik topoformantning toponegizga aylanishiga sabab bo‘ladi. Masalan: *Nurak, Nurakli, Nog‘orachi, Nurdum, Sovg‘on, Sazag‘on* kabi. Toponimlarning vujudga kelishida tildagi *o‘zak+qo‘shimcha=morfemaga* teng keladigan *toponegiz+topoformant =toponegiz* jarayoni uzluksiz davom etib turadi. Topoformantlar “qotgan bo‘lishi” yoki so‘z tarkibida nol holatga kelganligidan qat’i nazar toponimlar etimologiyazatsiyasi davomida ularni ajratib tahlil etish zaruriyati paydo bo‘ladi. Zero, toponimik birlikni grammatik jihatdan o‘rganishning ahamiyati ham ana shunda”<sup>14</sup>,—deb ta’kidlaydi.

Toponegizlar majmuyiga topoasos ham, topoformant ham, toponimik indikator (ya’ni geografik terminlar yoki toponimik aniqlagich) ham ishtirok etishi tabiiy holdir. Binobarin, joy nomlarining barchasi toponimlar hisoblanadi, ammo biz tadqiqotimizda Ishtixon va Payariq tumanlaridagi toponimlarning o‘zagini tashkil etuvchi toponegizlarni alohida tahlil qilish maqsadini ko‘zlaganmiz. Toponegiz asosga so‘z yasovchi qo‘shimchalar (topoformantlar) qo‘shilib hosil bo‘lgan toponimlardir. Asosga so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilgandan so‘ng negiz hosil bo‘ladi. Masalan, *ish+chi > ishchi* – negizga aylandi. Topoasosga so‘z yasovchi qo‘shimchalar (topoformantlar) qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan toponimlarni toponegizlar desak bo‘ladi. Masalan, *egar+chi > egarchi* – bu negiz.

<sup>13</sup> Мурзаев Э.М. Местные географические термины, в кн.: «Транскрипция географических названий».—М., 1960, — С.71.

<sup>14</sup> Каримов С.А., Бўриев С.Н. Кўрсатилган асар. —Б.35.

“Egarchi” Ishtixon tumanidagi qishloq nomi bo‘lganda toponegiz nisoblanadi, chunki topoasosga topoformant qo‘shish bilan apellyativ leksikada lug‘aviy asos yasaladi va u toponegizga ko‘chadi. *Tulkichi* (I.t., “Dagar Ochilov” MFY., ariq), *Sortoqchi* (I.t., “Zarband” MFY., q.), *Xatirchi* (I.t., “Ravot”, “Azamat” MFY., ariq), *Chang‘aroqchi* (P.t., “Birlashgan” MFY., q.), *Ayuvchi* (P.t., “Oytamg‘ali” MFY., q.), *Buyrachi* (P.t., “Oqqo‘rg‘on” MFY., q.), *Kindikli* (I.t., “Xalqobod” MFY., tepalik), *O‘roqli* (I.t., “Hazar bobo” MFY., tut), *Iyikli* (I.t., “Zarband” MFY., q.) kabilar.

Bobning **“Tadqiqotlarda toponegiz tushunchasiga munosabat”** deb nomlangan ikkinchi bo‘limida toponimlarni bugungi kungacha tavsiflash va izohlashga bag‘ishlangan tadqiqotlarda toponegiz hodisasi qayd etilgan o‘rinlarga to‘xtalangan. Toponimlarning toponegizlari tahlilida turli tarixiy davrlarda ishlatilgan umumxalq tili tamoyillarini yoki bugungi adabiy tilning talab va me‘yorlarini tatbiq qilish o‘rinli emas, bahsli. Shu sababli geografiya, tilshunoslik, tarix, geologiya fanlariga xos bo‘lgan tamoyillarga suyanib ish ko‘rish bilan toponimlar toponegizlarining tahlili hamda tadqiqini muvaffaqiyatli tarzda olib borish, ularning haligacha noma‘lum bo‘lgan individual xususiyatlarini talqin qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa bugungacha amalga oshirilgan umumiy, ensiklopedik, izohli va etimologik jihatdan tahlil qilingan toponimlarning toponegizi masalasini qayta tahlil etish yoxud qayta ko‘rib chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Darhaqiqat, o‘zbek tilshunosligida toponimlar tadqiqi keng ko‘lamda olib borilayotgan bo‘lsa-da, bu borada birorta jiddiy ilmiy ish yuzaga kelmagan edi. Bu paytgacha A.Muhammadjonov, E.Begmatov, Z.Do‘simov, S.Qorayev, N.Oxunov, T.Nafasov, T.Enazarov, M.Mirakmalov, N.Uluqov singari olimlar ishlarida toponegiz masalasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilinmagan, balki ba‘zi bir o‘rinlardagina to‘xtalangan edi. Toponimlarning izohli lug‘atlarida ham mazkur masalaga e‘tibor qaratilmadi. T.Enazarovning mamlakatimiz toponimlarining etimologik tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiyasi himoyasidan so‘ng toponegiz masalasiga e‘tibor paydo bo‘ldi<sup>15</sup>, toponimikaga oid ishlarda sekin-asta tilga olinib boshlandi. Albatta, toponimlarni yuzaga kelishida, lingvistik tavsiflashda asosiy rol o‘ynovchi toponegiz masalasi o‘zining ilmiy yechimini topishi kerak edi.

Toponim lug‘aviy asosining motivlanishi vositasida Ishtixon va Payariq tumanlari hududidan to‘plangan 3320ta misollar orqali amalga oshirilgan tahlillar natijasida tumandagi mavjud toponimlardagi toponegiz masalasiga oydinlik kiritildi. Eng e‘tiborlisi, toponimning lug‘aviy asos (lar)i (ya‘ni nom uchun tanlangan so‘zlar) hamda toponegizlari (nomning shakllanishiga asos bo‘lgan negizlar) masalasidagi bahsli o‘rinlar aniqlashtirildi. Binobarin, toponimning lug‘aviy asosi va toponegizi e‘tiborga olinmasa, uning o‘zini hech qanday omil, tamoyil va usullar bilan tahlilga tortib bo‘lmaydi.

---

<sup>15</sup>Эназаров Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. Филол. фан. д-ри дис. автореф. - Т.,2006.58 б.

Tadqiqotda topoasos, topoformant hamda indikator tushunchalari farqlangan. Toponimlarning motivlanishi uchun *toposharoit*, *topovaziyat* va *topoxususiyat* kabi tushunchalar muhim rol o'ynaydi. Bu haqida V.Nikonov va A.Superanskayaning tadqiqotlarida fikrlar mavjud<sup>16</sup>. Topoformantlar: *Nog'orchi*, *Egarchi* (I.t., "Chordara" MFY.,q.), *O'tarchi* (I.t., "O'rtaqishloq" MFY.,q.), *Ayuvchi* (P.t., "Oytamg'ali" MFY.,q.), *Bo'yrachi* (P.t., "Oqqo'rg'on" MFY.,q.); *Qayirma* (I.t., "Qo'rli" MFY.,q.); *Qo'rli* (I.t., "Qo'rli" MFY.,q.), *Cho'michli*, *Oytamg'ali* (P.t., "Birlashgan" MFY.,q.), *Kindikli*, *Tuyoqli*, *Novali* (P.t., "Choshtepa" MFY.,q.) kabilardagi qo'shimchalar shunday topoformantlar sanaladi.

A.Hojiyevning "Negiz.1.ayn.yasama asos.2.ayn. asos"<sup>17</sup> izohiga tayangan holda toponegiz va topoasos terminlari baravariga deyarli bir tushunchani, ya'ni toponimning yasalishiga asos bo'ladigan qismini ifodalashga xizmat qilayotganini e'tirof etish lozim. Aslida, bu termin o'zbek tilshunosligiga rus tilidagi «топооснова» terminining kalkalab tarjima qilinishi natijasida kirib kelgan. A.Xromovda shunday berilgan: «Топооснова – эта любая лексическая морфема, на базе которой образуеца топонимы посредством присоединения к ней топоформантов»<sup>18</sup> V.A.Nikonovda ham shu mazmunda berilgan<sup>19</sup>. E.Begmatov va N.Uluqov toponegizni: "toponegiz – q. topoasos", ya'ni toponim asosi toponimga negiz bo'lib xizmat qiladi. "Topoasos" termini ikki ma'noda ishlatilgan: "Topoasos – 1.Yangi atoqli otni yasashda negizlik rolini o'ynagan joy nomi. 2.Toponimning qo'shimcha yoki topoformant ajratilgandan keyin qoladigan qismi"<sup>20</sup> tarzida izohlashgan.

Toponegiz masalasini qiyoslaydigan bo'lsak, u toponimlar tizimidagi nazariy va amaliy qismning asosiy bandi sanaladi, desak to'g'ri bo'ladi. Chunki u hamma joydagi toponimlarda ham aniqrog'i, mikrotoponimlarda ham, makrotoponimlarda ham, toponimik indikatorlarda ham qo'llanganligi, qo'llanishi shart ekanligi tabiiy holdir. Shu nuqtayi nazardan, toponegiz termini ham nomshunoslik sohasining zaruriy tushunchasi va terminlaridan biri hisoblanadi.

**Ikkinchi bobning "Toponegiz terminini izohlashda toponimlashuv hodisasining o'rni"** nomli uchinchi bo'limida toponim sifatida tanlangan so'z yoki birikmaning toponimlashuv (toponimizatsiya<sup>21</sup>) jarayoni, ya'ni muayyan topoobyektning nomi sifatida tanlanishiga muhim tarixiy-lingvistik jarayon kuzatilishi natijasida u nom uchun tanlanishi xususida so'z yuritilgan. Darhaqiqat, topoobyektning yuzaga kelishida toponimlashuv hodisasi muhim rol o'ynaydi. Chunki bu hodisa aksariyat toponimlarning yuzaga kelish qonuniyatini ifodachisi

<sup>16</sup> Никонов В.А. Введение в топонимику. – М., Наука, 1965. – С.91.; Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М., Наука, 1985. – С.46-50.; Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М., Наука, 1973. – С.88.

<sup>17</sup> Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – Б.59.

<sup>18</sup> Хромов А.Л. Очерки по топонимии и микротопонимии Таджикистана. – Душанбе: изд-во «Ирфон», 1975. – С.4.

<sup>19</sup> Никонов В.А. Введение в топонимику. – М., 1965. – С.8.

<sup>20</sup> Бегматов Э. ва Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.76.

<sup>21</sup> Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М., Наука, 1988. – С.132;

Эназаров Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари: Филол.фан. д-ри дис. автореф. – Т., 2006. – 58 б.

sifatida qadimgi zamonlardan boshlab tillar taraqqiyotining turli davrlaridagi evolyutsion bosqichlarini o'zida aks ettiradi. Toponimlashuv hodisasining muhim ahamiyati shundaki, moziydan darak beruvchi toponimlarning shakllanishi orqali tilshunoslikning tarixiy muammolari haqidagi bilimlarimizni boyitishga va to'ldirishga xizmat qiladi.

So'zlar keng ma'noda nomlash mahsuli bo'lsa, ulardan shakllangan toponimlar – toponimlashuv hodisasi tufayli shakllanib, toponimik ma'noni ifodalaydigan atoqli otlarning bir turi hisoblanadi. Masalan, *Qil chuvat ariq* sintaktik birlik – gap. U toponimik derivatsiya hodisasi tufayli sintaktik birlikdan bir butun so'zga aylanib, toponimga ko'chgan: *qil+chuv+at+ariq* > *qil+chuvatariq* > *qilchuvatariq* (I.t., "Azamat" MFY., "Qirqiyigit" q. ariq), *Suluv qo'rg'on* > *Suluvqo'rg'on* – bunda esa ikki so'z birikib, so'z birikmasini shakllantirgan. *Suluv+qo'rg'on* > *suluv qo'rg'on* > *suluvqo'rg'on* > *Suluvqo'rg'on* (I.t., "Ravot" MFY., q.) – bunda ikki so'z o'zaro qo'shib, so'z birikmasini, keyin qo'shma so'zni hosil qilgan. So'ngra bu qo'shma so'z onomastik konversiyaning toponimik konversiya turi tufayli onomastik leksika sathiga ko'chib, toponimni yuzaga keltirgan. Demak, berilgan ikki toponim qayd etilgan so'z birikmalaridan toponimlashuv hodisasining toponimik derivatsiya va onomastik konversiya jarayonlarida shakllanganligi bilan farqlanadi.

Demak, ushbu hodisa turdosh so'zlar bilan toponimlarning farqli va o'xshash xususiyatlarini yana ham aniqroq tarzda ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu hodisa obyektlarning nomlanishini asoslovchi tabiiy qonuniyat sanaladi. Obyektlar bormi, demak, u tabiiy hamda ijtimoiy zaruriyatlar tufayli nomlanadi. Nomlanish esa toponimlashuv hodisasining mavjudligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning uchinchi bobi "**Toponegizlar shakllanishining lingvistik va ekstralingvistik omillari**" deb nomlangan. Bobda toponimlar tarkibidagi toponegizlarning amaliy tadqiqini ta'minlovchi lingvistik va ekstralingvistik omillar xususida so'z yuritilgan. Bobning "*Toponegizlarning lingvistik shart-sharoitlari*" nomli birinchi bo'limida til hodisalari bilan bog'liq lingvistik omillarning mahsuli sifatida shakllangan topoasos, topoformant va indikatorlar yaxlitligini ifodalovchi toponegizlar tahlil qilingan. Binobarin, toponegizlarning yuzaga kelishi uchun lingvistik imkoniyatlar, ya'ni lingvistik shart-sharoitlar bo'lishi lozim. Xuddi shu narsalarga muvofiq va mos holda toponegizlarning yuzaga kelish jarayonida lingvistik omillarning bo'lishi va amal qilishi inkor etilmaydi. Aks holda ularning shakllanishi bilan topoobyektning nomi yuzaga kelavermaydi.

Mazkur bo'limda lingvistik omillarning o'zagi bo'lgan quyidagilar: 1) fonetik omillar; 2) leksik omillar; 3) leksik-semantik omillar; 4) grammatik omillar.

Fonetik omillar ta'sirida yuzaga kelgan toponimlarga quyidagilarni misollar sifatida keltirib, ulardan ba'zilarini izohlashga intildik: *Oxmonovul* (I.t., "Haqiqat" MFY., q.), *Sortoqchi* (I.t., "Zarband" MFY., q.), *So'g'at* (I.t., "Dagar Ochilov" MFY., q.), *Soharji* (I.t., "Haqiqat" MFY., q.), *Janggat* (I.t., "Haqiqat" MFY., q.).

Ta'kidlash joizki, aksariyat toponimlar fonetik tuzilishi jihatidan tilimiz fonetik qurilishi qoidalariga mos kelsa-da, ammo atrofdagi yoki ta'sir doirasi kuchli bo'lgan boshqa qardosh va noqardosh tillar ta'sir o'tkazganligini ham ko'rish mumkin. Biz shu o'rinda Payariq tumani toponimlarining shakllanishida sheva yoki boshqa tillar ta'siri masalasini ikkinchi rejaga tushirib, nomlarni tahlil qilishda tilimizning mavjud adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda amalga oshirishga harakat qildik. Tuman toponimlarining fonetik tarkibi, tovushlarning joylashishi, nomning qancha va qanday tovushlardan hosil bo'lishini ishda batafsil tahlil qilindi.

Toponegizlarning leksik omillari topoobyektlarning nomlanishida va toponegizlarning shakllanishi jarayonida o'ziga xos ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biri ekanligi dalillangan. Leksik omilda toponim(lar) tarkibidagi ma'nosi noma'lum ma'noli qism(lar) jiddiy tarzda e'tiborga olinadi. Toponimlar tarkibidagi ma'nosi noma'lum qismlarga: a) jiddiy o'zgarishlarga uchragan tarixiy; b)arxaik; v)dialektal so'zlar oiddir. Ularga quyidagilarni namuna sifatida keltirish mumkin: *Payshanbiariq* (I.t., "Azamat"MFY., ariq), *Rasul kamar* (I.t., "Shexlar"MFY., dala), *Rasulkamar* (I.t., "O'rtaqishloq"MFY., dala), *Qo'l ota* (I.t., "Zarband"MFY., q.), *Qulchara* (I.t., "Chordara"MFY., q.) va boshqalar. Umuman, o'rganilgan hududlarda leksik sathga oid toponegizlar ko'plab shakllangani ma'lum bo'ldi.

